



**CHET TILLARINI O'QITISH METODLARI, KELIB CHIQISHI VA UNING
TURLARI.**

Murodova Nilufar Narimonovna

*O'zbekiston Davlat Jaxon Tillari Universiteti
Ingliz tili filalogiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish metodlarining shakllanish tarixi, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy metodlarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til o'qitish samaradorligini oshirish uchun an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur.*

Kalit so'zlar: *chet tili, metodika, kommunikativ yondashuv, o'qitish usuli, texnologiya.*

Kirish

Bugungi globallashtirish davrida chet tilini bilish insonning kasbiy, ilmiy va madaniy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, chet tillarini o'qitish metodlarini ilmiy asosda o'rganish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Metodik yondashuvlar tarixan jamiyatning ehtiyojlariga, pedagogik fikr rivojiga va texnologik imkoniyatlarga qarab shakllanib kelgan.

1. Chet tillarini o'qitish metodlarining kelib chiqishi

Chet tillarini o'qitishning dastlabki shakllari qadimgi Yunoniston va Rim davrlariga borib taqaladi. O'sha davrlarda o'qitish jarayoni asosan grammatika–tarjima metodiga asoslangan bo'lib, matnlarni tarjima qilish, grammatik qoidalarni yodlash va yozma mashqlarni bajarish bilan cheklangan.

XVIII–XIX asrlarda ushbu metod Yevropada keng qo'llanilgan. Biroq, XX asr boshlariga kelib bu yondashuvning kommunikativ jihatdan samarasizligi aniqlanib, yangi metodlar ishlab chiqila boshlandi. Shu davrda to'g'ridan-to'g'ri metod, keyinchalik audiolingval metod va kommunikativ yondashuv shakllandi.

Chet tili darslarini o'qitish metodikasida quyidagi metodlar ko'p tarqalgan:

- Tarjima metodi- buni qanday metod ekanligini nomidan bilib olish ham mumkin, bunda chet tilidagi ma'lumotlar ona tiliga tarjima qilinadi. Tarjima metodlari orasida eng ko'p tarqalganlari „Grammatika-tarjima metodi” va „Matn tarjima metodi” nomlari bilan mashxurdir. Har ikkalasi tarjima metodlarini qo'llashdan faqat ta'limiy masad ko'zlangan. Chet tili retseptiv tarzda o'rganilgan.

- To'g'ri metod- metod nomining kelib chiqishi asosiy sabab shuki, to'g'ri metodda o'qitish chog'ida ona tilini chetlab o'tib chet til so'zi bilan predmat orasida bevosita assotsiatsiya, ya'ni fikran bog'lanish o'rnatishga urinib ko'rilgan. Chet tili grammatikasini o'qitishda shu metoddan foydalanishadi. To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishlaridan ikkitasi- audiolingval va audiovisual metodlari keng tarqalgan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



• Aralash metod- ushbu metod ikkita metodik yo‘nalishlarning ilmiy-amaliy tomonlarini o‘ziga singdirib olgan. Aralash metodning boshqacha ko‘rinishi to‘g‘ri va qiyosiy metodlar prinsiplari qorishmasidan vujudga kelgan.

• Qiyosiy metod- bu etodning to‘liq nomi „ Ongli qiyosiy metod“ deb ataladi. Ongli-qiyosiy metodning birinchi ko‘rinishida qoida asosan mashq bajariladi. Zamonaviy ko‘rinishda mashq jarayonida amaliy ruxdagi qoidalar umumlashtiriladi. O‘quvchi qiyoslash, qoidani yodlash va aytib berish, nazariy bilimlar yig‘ish bilan maxsus shug‘ullanmaydi. Metod atamasini ifodalashning yana bir turi chet til o‘qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlardir: 1) tanishish, 2) mashq qilish, 3) qo‘llash. Chet tilini o‘qitish metodikasida: Trening qabul qilish metodi ham mavjud bo‘lib bu- o‘qituvchi, talabalar o‘rtasida ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalarni uzatish va o‘zlashtirishga qaratilgan muddatli munosabatlardir. Kollektiv faoliyat- bir vaqtning o‘zida, erkin umumiy natijaga erishishga qaratilgan jamoaviy ish a‘zolari o‘rtasida taqsimlashdir. Bunday usullar ham fan o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu usullarni qo‘llash jarayonida kongitiv faoliyatni ham tashkil etishni sedan chiqarmaslik kerak ya‘ni doskada ishlash, jadval to‘ldirish, hisobot yozish va darslik bilan ishlash kabilar.

Chet tili darslarining asosini to‘rt soha qamrab oladi- tinglash, gapirish, o‘qish va yozish.

1) Dars jarayonida faqat nutq mahoratini shakllantirish kerak emas va shuning uchun tinglashni o‘rgatish chet tilini o‘qitishning amaliy vazifalaridan biridir. 2) O‘qishni o‘rgatish paytida matnlardan ma‘lumot olish mumkin, yang so‘zlar o‘rganiladi, bunda ham turli texnikalardan foydalangan holda o‘rgatish kerak ya‘ni ko‘rish qidirish kabi. Chet el metodologiyasida o‘xshash turlar yoki o‘qish qobiliyati mavjud (skimming, scanning). 3) Chet tilini og‘zaki nutqini o‘qitishda gapirish asosiy rol o‘ynaydi. Uni shakllantirish uchun mashqlar va topshiriqlar bajarilishi kerak. 4) Yozishni o‘rgatish – bu ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan xat yozish individual ma‘lumotni tahlil qilish va sintez qilishga yordam beradi. Bugungi kunda ham che tilida yozish mahoratiga talab katta. Dars o‘quv tarbiyaviy ishlarni olib borishni tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Shunday ekan dars jarayonlarida o‘qituvchilardan pedagogik mahorat ham talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. Jalolov. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi, „O‘qituvchi“ nashriyoti. Toshkent.
2. Passov E.I Uslovna- recheviya uprajneniya. Xoshimov U.X. va I. Ya. Yakubov Ingliz tili o‘qitish metodikasi. 1983-yil. O‘qituvchi nashriyoti.
3. D. Shabanov. Chet tilini o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. Toshkent - 2009.
4. A.Xoliov. Pedagogik mahorat. Toshkent „IQTISOD-MOLIYA“ 2011-y.
5. Г. А. Китайгородская. Методика интенсивного обучения иностранном языке. Москва, “ Вьсшая школа”
6. Library. Ziyonet. Uz.